



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

BADIIY ASAR NOMLARINING ILMIY TALQINI SCIENTIFIC INTERPRETATION OF LITERARY WORK TITLES

Jo'rayeva Mehriniso Safar qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Email: jorayevam858@gmail.com

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./BHVT4744](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./BHVT4744)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy asar nomlari, ularning asar mazmunini ifoda etishdagi ahamiyati, ixtiyoriy va motivli nominatsiya jarayoni hamda ideonimika, ideonim atamalariga alohida to'xtalib o'tilgan, nazariy ma'lumotlar misollar yordamida tushuntirilgan.*

Kalit so'zlar: *Nomlar, onomastika, asar nomlari, ideonimika, ideonim, tafakkur mahsuli, “Poetik antroponimika”, biblionim, semantik ma'no, ixtiyoriy, motivli, nominatsiya.*

Annotation. *This article examines the titles of literary works, their significance in conveying the content of a work, the processes of arbitrary and motivated nomination, and gives special attention to the concepts of ideonymics and ideonyms. Theoretical issues are explained through illustrative examples.*

Keywords: *Titles, onomastics, literary work titles, ideonymics, ideonym, product of thinking, poetic anthroponymics, biblionym, semantic meaning, arbitrary, motivated, nomination.*

Insoniyatga ma'lum bo'lgan barcha jonli va jonsiz narsalar nomsiz bo'lmagani kabi, inson tafakkurining mahsuli bo'lgan barcha narsaning, jumladan, badiiy asarlarning ham muayyan nomi bo'ladi. Bu nomlarni asarning mazmuni va g'oyasidan ayro tasavvur etib bo'lmaydi. Shu boisdan, ijod ahli yozadigan asari g'oyasi va mazmuni bilan bog'liq holda o'z asari nomlarini tanlashga ham alohida e'tibor berishadi. Asar nomi esa o'sha asarning mazmun kaliti vazifasini o'taydi. Ijodkorlar badiiy asarning g'oyasi, mavzusi va tuzilishi ustida izlanishlar olib borganlari kabi uni qanday nom bilan atash haqida ham ko'p o'ylaydilar. Asarni hamda obrazlarni nomlash, ularni asarning g'oyasi bilan bog'lash asarning yozilishi kabi qiyin va mas'uliyatli ishdir. Asar nomlari ularning mazmuni va g'oyasi kabi muhimdir. Ijod ahli shuning uchun ham o'z asarlariga tasodifiy nom tanlamaydilar. Chunki birgina nomda butun boshli asarning mazmuni, g'oyasi, obrazlarning ichki dunyosi, ijodkor faoliyati va boshqalarga bo'lgan munosabati, shuningdek davr, insoniyatga nisbatan qarashlari, yozuvchining hayoti bilan bog'liq voqeliklar majmuyi aks etishi mumkin. Shunday asarlar bo'ladiki, ularning nomlaridan asarning nimani yoritib bergani anglashilib turadi. Bunday asar nomlari sirasiga Hofiz Buxoriyning “Abdullanoma”, Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma”, Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”, Yaqiniyning “O'q va yoy”, Nishotiyning



“Boz va bulbul” kabilarni kirita olamiz. Shuningdek, asar nomlari ijobiy qahramonlarning ismlaridan olinishi ham mumkin. Bunday asar nomlariga Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy”, Durbekning “Yusuf va Zulayho”, Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun”, Qutb Xorazmiyning “Xusrav va Shirin” kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Ozarbayjonlik olim A.Pashayev “Poetik antroponimika” nomli monografiyasida shoir Xalil Rizoning E.Məmmədovning “Haray” (Nido) romani nomi haqidagi bildirgan quyidagi fikr-mulohazalarini bayon etadi: “Roman nima uchun “Haray” deb ataladi? Menimcha, yozuvchi Qosim Shirvonlining so'zlari va amallari orqali xalqqa xitob qilib, nido chekib, shuni aytmoqchiki, bizga yurtimizda mard va mag'rur yashagan bobokalonlarimizdan meros bo'lib qolgan eng yaxshi odatlarni, halollikni va zahmatning ulug'vorligini, nomus, vatanparvarlik, elga muhabbat kabi muqaddas tushunchalarni saqlab qolish, yoshlarga ham singdirish zarurdir” [Paşayev, 2022: 17]. Haqiqatan, asar nomi unda tasvirlangan voqealarning g'oyasi va mazmunini yoritadi, ularni tushuntirishda, anglashda muhim rol o'ynaydi.

Asar nomlari odatda onomastikaning mustaqil bo'limlaridan biri bo'lgan ideonimikada tadqiq etiladi. Shunga qaramay, har qanday badiiy asarning mazmuni va g'oyasi haqida gapirilganda, avvalo, uning nomi haqida ma'lumot berish foydali bo'ladi. Ideonimikaga ozarbayjonlik olimlar M.Adilov, A.Pashayevlar tomonidan shunday ta'rif berilgan: “Ideonimika – onomastikaning ideonimlarning yuzaga kelishi, funksiyasi, nomlar sistemasidagi o'рни, leksik va grammatik xususiyatlarini tadqiq etuvchi sohasidir” [Adilov., Paşayev, 2005: 222-223]. E. Begmatov va N.Uluqovlarning fikriga ko'ra, “Ideonim (yun. Idea g'oya + onoma – atoqli ot) – tarixiy asarlar, hujjatlar atoqli oti” [Begmatov., Uluqov, 2006: 33]. Bizningcha, bu ikki ta'rif bir-birini to'ldiradi, ya'ni ideonim atamasi insonning aqliy, g'oyaviy, badiiy tafakkuri mahsuli natijasi o'laroq yuzaga kelgan nomlar bo'lsa, ideonimika esa ushbu g'oyaviy nomlarni tadqiq etuvchi sohadir.

Ilmiy adabiyotlarda ideonimlarning quyidagi turlari ko'rsatiladi: 1. Badiiy asar nomlari; 2. Gazeta va jurnal nomlari; 3. Ilmiy asar nomlari; 4. San'at asarlarining nomlari; 5. Musiqa asarlarining nomlari; 6. Televideniya, radio dasturlarining nomlari va hokazo [Paşayev, 2022: 17]. Badiiy asar nomlari ideonimlarning eng qiziqarli va keng tarqalgan turlaridan biridir. Og'zaki va yozma adabiyotning barcha turlari va janrlarida mavjud bo'lgan badiiy asarlarning hammasi muayyan nomga ega. Ularga nisbatan ilmiy adabiyotlarda biblionim atamasi qo'llaniladi. Biblionim – badiiy asar nomi demakdir.

Bir guruh o'zbek nomshunoslari ta'kidlaganlaridek: “...o'zbek tili tarixida mavjud bo'lgan va ko'plab tarixiy va yozma yodgorliklar hamda tarixiy asarlar tilida saqlanib turgan son-sanoqsiz atoqli otlar, ularning paydo bo'lishi, yasalishi va shakllanishi, ma'no va vazifaviy xususiyatlari, boshqa xil lisoniy hamda tarixiy-madaniy, ma'rifiy tomonlari fan uchun qorong'uligicha qolmoqda”



[Begmatov., Husanov., Yoqubov., Boqiyev, 1992: 21]. Darhaqiqat, tarixiy va yozma yodgorliklar, asarlar bizning tariximiz, bugunimiz va ertamiz hamdir. Ularning nomlarini, shuningdek, ularning tilida saqlanib qolgan nomlarni tadqiq etish, paydo bo'lishi, ma'no-mazmun qatlami hamda tuzilishini o'rganish o'zbek tilshunosligi, nomshunosligi uchun ham dolzarb masalalardan sanaladi. Bu fikr shubhasiz o'zbek tili bibliionimlari uchun ham tegishlidir. Bibliionimlar tilimizning eng qadimgi taraqqiyot davrlaridan beri shakllanib kelayotgan onomastik birliklardan hisoblanadi. Professor Sh.Safarov bibliionimlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan nominatsiya jarayoniga shunday ta'rif beradi: “Nutqiy faoliyatning ajralmas qismi bo'lgan nominatsiya harakati bajarilayotgan lisoniy belgi tanlovining ixtiyoriy yoki motivli bo'lishi masalasi nazariy tilshunoslikning o'ta jiddiy masalalaridandir” [Safarov, 2013: 20]. Bunda nominatsiya jarayonida qaysi so'zni tanlaymiz? Nima uchun aynan bu so'z ishlatiladi? Mana shu tanlov tasodifiy bo'ladimi yoxud sababga asoslangan bo'ladimi kabi savollar yuzaga chiqadi. Buni bibliionimlar, ya'ni asar nomlarida kechadigan nominatsiya jarayoniga bog'laydigan bo'lsak, dastlabkisida muallif nomni ijodiy tanlaydi, lekin u mazmuni darhol anglatmaydi. O'quvchi nomdan mazmuni oldindan bilolmaydi. Bunday asar nomiga misol qilib Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” (Ko'ngillarning sevgani) ni keltirishimiz mumkin. Ushbu nomda asar mazmuni to'liq anglashilmaydi, balki asarni o'qib chiqib olingan xulosa asosida ushbu nomning ramziy ma'no anglatishini tushunamiz. Sababga asoslanadigan, ya'ni shakl va mazmun munosabatli nominatsiyaga Alisher Navoiyning “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” asarlarining nomlarini misol qilib keltirish mumkin. Bularda asar nomi syujet bilan bevosita aloqador. Har ikki asarda ham asar nomida tilga olingan qahramonlarning muhabbati tasvirlangan.

Bibliionimlarni ifodalanmish mazmuniga ko'ra semantik tadqiq qilish qanchalik zarur bo'lsa, ifodalovchi sifatida, ya'ni undagi mazmun va belgiga ishora masalasida ularni hosil qiluvchi so'zlarni aniqlash ham muhimlik kasb etadi. Tilshunos olim Sh.Akmanova bibliionimlarni gidronimlar, fitonimlar, zoonimlar, kosmonimlar, etnonimlar, oydomonimlar, geotonimlar bibliionimlar asosli turlarga bo'lgan holda tadqiq etadi [Akmanova, 2024: 364]. Bibliionimlar badiiy asarga qo'yilgan nomlar bo'lganligi uchun, tabiiyki, semantik jihatdan turli ko'rinishlarga ega bo'ladi. Bu kabi tadqiqot ishlari bibliionimlar borasida yechimini kutayotgan muammolarga yechim vazifasini o'taydi.

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, badiiy asar nomlari tuzilishi va ma'nosiga ko'ra juda rang-barangdir. Asar nomlari onomastikaning mustaqil bo'limi bo'lgan ideonimikada bibliionim atamasi ostida o'rganilsada, ularning badiiy asarlarning syujeti, mazmuni va g'oyasidan ayro tasavvur etib bo'lmaydi. Asarlarni tahlil etishga kirishganda eng avvalo, asar nomidan, obrazlar tavsifini sharhlashda esa ular nomining struktur-semantik xususiyatlarini o'rganishdan boshlash asar g'oyasini va obrazlar xarakterini

tushunishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda, bibliionimlar mavzusiga doir turfa nazariy va amaliy muammolarni atroflicha tadqiq etish va tahlil qilish o‘zbek tilshunosligi va nomshunosligi fanlari oldida turgan muhim va dolzarb vazifalardandir. Zero, bibliionimlar yozma adabiyotning ijtimoiy-madaniy hayotning barcha jabhalaridagi o‘shish-u o‘zgarishlarga bevosita daxldor bo‘lgan eng faol va ommabop ko‘rinishi hisoblanadi. Bilamizki, har qanday asar bibliionimdan boshlanadi. Bibliionimning mavjudligi, uning mohiyati-yu maqomi matnning mavjudligi bilan bog‘lanadi. Yozuvchining o‘z o‘quvchisiga aytadigan dastlabki so‘zi ham bibliionimdir. “Bibliionim – har qanday badiiy, ilmiy, siyosiy asarlarga qo‘yilgan atoqli ot [Begmatov, 2013: 46]”. Lekin u matn uchun shunchaki bir shartli ramz yoxud belgi emas, balki matnning mohiyati, mazmuni, maqsadi va vazifasi bilan uzviy aloqador bo‘lgan muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli ham badiiy asarga aniq va maqsadga muvofiq bibliionim qo‘yish talab etiladi.

Adabiyotlar:

1. Adilov M., Paşayev A. Azərbaycan onomastikası (İzahlı terminoloji lüğət). Bakı, 2005. – B. 222-223.
2. Akmanova Sh. Atoqli otlarga asoslangan bibliionimlar xususida. Tamaddun nuri//the light of civilization, 2024. – B. 364.
3. Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006. – B. 33.
4. Begmatov E., Husanov N., Yoqubov Sh., Boqiyev B. O‘zbek tarixiy nomshunosligining dolzarb muammolari // o‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1992. – B. 21.
5. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi – Toshkent, 2013. – B. 46.
6. Paşayev A. Poetik antroponimika. – Bakı: Mütərcim, 2022, 232 səh.
7. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent, 2013. – B. 20.
8. Iqbol O'razova. [“Suhayl va Guldursun” dostonida o ‘g ‘uz lahjasining qo ‘llanishi](#). UZBEKISTAN. P. 90
21. Shamsieva Manzura, Abdurashitov Naimjon. Bilingualism in psycholinguistic interpretation. Open Academia: Journal of Scholarly Research Volume 1, Issue 3, June, 2023 ISSN (E):2810-6377 Website: <https://academiaone.org/index.php/4>.
22. Umurzakova M.E. [Types of linguistic personality in the literary text \(on the example of Ulugbek hamdam's stories\)](#)
23. [Xakimova M. Synesthetic metaphor in uzbek language // Asian Journal of Multidimensional Research](#), January 2021. № 10(3). -P. 495-499.
24. ZT Xolmanova, ZMQ Kasimova [REALIYALAR SEMANTIKASINING TARJIMA MATNLARDAGI IFODASI](#). - Academic research in educational sciences, 2021